

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.04.2021.F.76.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA POLITEXNIKA INSTITUTI

ABDURAXMONOV G‘AYRATJON ZOKIROVICH

**JAMIYAT TARAQQIYOTINING YANGI BOSQICHIDA G‘OYAVIY
BIRLASHUV ZARURIYATI: IJTIMOIIY- FALSAFIY TAHLIL**

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

**FALSAFA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

**Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
философским наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on
Philosophical Sciences**

Abduraxmonov G'ayratjon Zokirovich

Jamiyat taraqqiyotining yangi bosqichida g'oyaviy birlashuv zaruriyati:
ijtimoiy- falsafiy tahlil..... 3

Абдурахманов Гайратжон Зокирович

Необходимость идеологического единства на новом этапе развития общества:
социально-философский анализ 23

Abdurakhmonov Gayratjon Zokirovich

The need for ideological unity at a new stage of society's development: socio-
philosophical analysis..... 45

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works 49

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.04.2021.F.76.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA POLITEXNIKA INSTITUTI

ABDURAXMONOV G‘AYRATJON ZOKIROVICH

**JAMIYAT TARAQQIYOTINING YANGI BOSQICHIDA G‘OYAVIY
BIRLASHUV ZARURIYATI: IJTIMOIIY- FALSAFIY TAHLIL**

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

**FALSAFA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Namangan – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.PHD/Fal894 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Farg‘ona politexnika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Namangan davlat universiteti veb-sahifasi (www.namdu.uz) va «Ziyonet» Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Siddiqov Ilyosjon Bahromovich
falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

Rasmiy opponentlar:

G‘aniyev Baxodirjon Sadikjanovich
falsafa fanlari doktori, dotsent

Sharipov Abduxakimjon Ziyoitdinovich
falsafa fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Andijon davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Namangan davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.04.2021.F.76.06 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil “____” _____ soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 160119, Namangan shahri, Uychi ko‘chasi, 316-uy. Tel.: (+99869) 228-85-01; faks: (+99869) 228-85-02; e-mail: info@namdu.uz).

Dissertatsiya bilan Namangan davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ - raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 160119, Namangan shahri, Uychi ko‘chasi, 316-uy, Tel.: (+99869) 228-85-01).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil “____” _____ kuni tarqatildi.
(2024-yil “____” _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

R.T. Jo‘rayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, siyosiy fanlar doktori (DSc), professor

K.O.Maxkamov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, sotsiologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

M.I.Ismoilov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, falsafa fanlari doktori, professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda globallashtirish va axborotlashuv jarayonining tezlashuvi, geosiyosiy o'zgarishlarning keng ko'lam kasb etishi orqali insoniyat ilgari kuzatilmagan xavf-xatar va tahdidlar kuchaygan sharoitda yashashga va ishlashga majbur bo'lmoqda. Butun dunyoda sodir bo'layotgan global madaniy o'zgarishlar ba'zi «internet tizimlari, ijtimoiy tarmoqlar va elektron nashrlar ko'p hollarda ayrim buzg'unchi kuchlar qo'lida turli soxta, zararli g'oya va mafkuralarni targ'ib etishning qulay va tezkor vositasi»ga aylanib qolayotganligini ko'rsatmoqda. Bunday tahdidlar jamiyat hayotida bepisandlik, mas'uliyatsizlik, loqaydlik, andishasizlik, behayollik kabi illatlar ildiz otishiga, g'oyaviy parokandalik va boshboshdoqlikka, odamzotning o'z tarixiy, diniy, milliy-ma'naviy ildizlaridan uzilib qolishiga sabab bo'lmoqda va bu jahondagi ko'plab davlatlarda umumiy tendensiyaga aylanib bormoqda. Mazkur jihatlar bugungi kunda har bir mamlakatda yangicha g'oyaviy konsepsiyani ishlab chiqish va jamiyatni g'oyaviy birlashtirishni dolzarb vazifalardan biriga aylantirmoqda.

Dunyodagi ilg'or ilmiy tadqiqot markazlarida g'oyaviy birlashuvga erishish asosida jamiyatda ijtimoiy birdamlik va hamjihatlik muhitini shakllantirishga doir bir qancha ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Mazkur tadqiqotlarda g'oyaviy birlashuvning milliy taraqqiyotga xizmat qiluvchi jihatlari, ayniqsa, mafkuraviy immunitetni tarbiyalash, millatlararo hamjihatlikni qaror toptirishda uning substansional va institutsional xususiyatlarini tadqiq etish ijtimoiy falsafaning dolzarb muammolaridan biriga aylandi. Xususan, ayrim mamlakatlarda yuzaga kelayotgan etnik ixtiloflar, separatizm harakatlarining oldini olishda g'oyaviy birlashuvni amalga oshirish asosida hamjihatlik, birdamlik, tinchlik va totuvlik muhitini yaratish uchun bunday tadqiqotlar muhim rol o'ynaydi. Shu sababli g'oyaviy birlashuvni institutsional negizda shakllantirish va uning substansional xususiyatlarini ijtimoiy falsafa fanining tegishli kategoriyalari asosida tahlil etish dolzarb hisoblanadi.

O'zbekistonda ham taraqqiyotning bugungi yangi bosqichida ko'p millatli xalqning yagona konsepsiya asosida g'oyaviy birlashuvini ta'minlash orqali millati, tili va dinidan qat'i nazar, jamiyat a'zolarining ezgu orzu-intilishlari, tub manfaatlarini o'zida aks ettiradigan va shu yo'lda birlashtiradigan, safarbar etadigan, muttasil rivojlanib boradigan ijtimoiy birdamlik harakatini shakllantirish ishlari olib borilmoqda. Jamiyatning g'oyaviy birlashuvi yuksak ijtimoiy o'zgarishlarni keltirib chiqarishi: mamlakatni innovatsion rivojlantirishi, odamlarda faol fuqarolik pozitsiyasi va tashabbuskorlikni kuchaytirishi, mustaqil dunyoqarash va fikrlash ko'nikmasini shakllantirishi, jamiyatda adolat ustuvorligini ta'minlashi, huquqiy-demokratik davlat asoslarini mustahkamlashi, eng muhimi, korrupsiyaga, jaholatga qarshi kurashishda ijtimoiy hamjihatlik va birdamlikni kuchaytirishi ma'lum. Shu bois, «jamiyatimizda aholi, ayniqsa, yosh yigit-qizlarimizning ma'naviy-ma'rifiy saviyasini doimiy yuksaltirish, «Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari» degan dasturiy g'oya asosida yoshlarni ona yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularda tashabbuskorlik, fidoyilik, axloqiy fazilatlarini shakllantirish – o'ta sharafl

vazifadir»¹. Bunday sharoitda jamiyatimizning g‘oyaviy birlashuvi, ijtimoiy birdamligi va hamjihatligini ta‘minlashga doir tadqiqotlar dolzarblik kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-maydagi PQ-4307-son “Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2020-yil 29-oktyabrdagi PF-6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son “Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmon va Qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22-dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasi hamda mazkur faoliyatga doir boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar ijrosini ta‘minlashda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rahbarligida ishlab chiqilgan 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi, normativ-huquqiy hujjatlar, mamlakatimizda g‘oyaviy bilashuvni shakllantirishga doir ilmiy izlanishlar mazkur tadqiqotga ilmiy-metodologik asos bo‘lib xizmat qildi.

Falsafiy bilimlar taraqqiyoti g‘oyaviy birlashuv masalasi bilan bog‘liq muammolarning chuqurroq o‘rganilishiga zamin yaratdi. Xususan, g‘oyaviy birlik va birdamlik, g‘oyaviy birlashuv, milliy yuksalish va birlashish g‘oyasi, hamjihatlik va totuvlik g‘oyasining shakllanishi haqidagi mulohazalar jadidchilik harakati namoyandalarning qarashlarida ham o‘z aksini topgan. Jumladan, Abdurauf Fitrat, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Hoji Muin, Abdulla Avloniy, Is‘hoqxon Ibrat, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho‘lpon, Usmon Nosir kabi mutafakkirlar qarashlarida ham o‘ziga xos talqin etilganini ko‘rish mumkin².

G‘arb mamlakatlarida ideologik ta‘sir mexanizmlari, g‘oyalarning ijtimoiy ahamiyati va mafkuralar kurashiga bag‘ishlangan bir qancha tadqiqot ishlari olib borilgan. Jumladan, B.Shyuter³, N.Glayzer⁴, N.Morgentau⁵, Sh.Akiner⁶, Z.Bjezinskiy, T.Neyren, A.Toynbi, O.Shpengler, F.Fukuyama, P.J.Byukenenlarni ilmiy ishlari va izlanishlari shular jumlasidandir.

¹ Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. –Тошкент.: Ўзбекистон. 2020. –Б. 35.

² Абдулла Қодирий. Тўла асарлар тўплами. Т.1. – Тошкент: Маънавият, 1996. – Б. 228.; Абдурауф Фитрат. Оила ёки оилани бошқариш тартиблари. – Тошкент: Маънавият, 1998. – 112 б.; Махмудхўжа Бехбудий. Танланган асарлар. – Тошкент: Маънавият, 1996. – 300 б.; Абдулла Авлоний. Танланган асарлар. 2 томлик. –Тошкент: Маънавият, 1996: Чўлпон. Асарлар: 3 томлик. (О.Шарафуддинов таҳрири остида). Т.1. – Тошкент: Ф.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1994. – 448 б.

³ Schutter B.De, Pas J. About Globalisation. University Press, 2004.-Pp. 356.

⁴ Glazer N. Two Cheers for “Asian Values” //The National interest. Fall 1999. –Pp. 189.

⁵ Morgentau H. Politics Among Nations: The Struggle Power and Peace. – New York. 1985. –Pp. 321.

⁶ Shirin Akiner. National development and civil society in Central Asia: trends in social and political reorganization. Paper presented at the Conference on Regional Stability and Security in Central Asia, 7-11 December 1998. –P. 271.

MDH mamlakatlarida ham g'oyaviy kurash va mafkuraviy munosabatlar, g'oya va mafkuralarning ijtimoiy taraqqiyotdagi o'rniga doir izlanishlarni V.Kutsenko, A.Morozov, V.Petrishev, A.Silnov, V.Lunev, N.Borshov, V.Kudryavsevlar tadqiqotlaridan bilish mumkin.

O'zbekistonda so'nggi chorak asr davomida milliy g'oya va mafkuraga bag'ishlangan bir qancha ilmiy izlanishlar amalga oshirildi. Jumladan, U.Abilov, M.Abduraimova, T.Jo'rayev, Sh.Paxriddinov, J.Baxronov, N.Jo'rayev, N.Komilov, M.Quronov, A.Begmatov, Q.Nazarov, A.Muxtorov, I.Ergashevlarning tadqiqotlarida g'oya va mafkuralarning ijtimoiy ahamiyati va zarurati ilmiy asoslangan, shuningdek, S.Otamuratov, I.Xo'jamurodov, N.Nazarov, V.Qo'chqorov, Sh.Qahharova, U.Saidovlar tomonidan ham o'rganilgan.

Mazkur dissertatsiya O'zbekistonning yangi rivojlanish bosqichida jamiyatning g'oyaviy birlashuv zaruratining ijtimoiy-falsafiy tahliliga bag'ishlanganligi bilan alohida ajralib turadi va bu tadqiqot ishining o'ziga xosligini ko'rsatib beradi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Farg'ona politexnika instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "Yangi O'zbekiston taraqqiyoti va talaba-yoshlarning ijtimoiy ongini shakllantirishning falsafiy masalalari (2021-2024)" mavzusidagi loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi jamiyat taraqqiyotini ta'minlashda g'oyaviy birlashuv zaruriyatining ijtimoiy-falsafiy jihatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

jamiyatning yangi rivojlanish bosqichida g'oyaviy birlashuvning zamonaviy konsepsiyasini ishlab chiqish va ijtimoiy birdamlik tamoyillarini shakllantirish orqali ijtimoiy taraqqiyotni ta'minlash yo'llarini ochib berish;

2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlashga qaratilgan maqsadlarini hayotga joriy qilishda diniylik va dunyoviylik muvozanatini shakllantirish orqali g'oyaviy birlashuvga erishish yo'llarini asoslash;

jamiyatning yangi rivojlanish davrida "milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" konsepsiyasini real va hayotiy maqsadlar bilan boyitish orqali xalqning kelajakka ishonchini mustahkamlash, uni bunyodkorlik ishlariga safarbar qilish, jamiyatda uchrayotgan illatlar, xususan, loqaydlik, boqimandalik va korrupsiya kabi holatlarga qarshi faol kurashishga da'vat etish mumkinligini dalillash;

jamiyatning g'oyaviy birlashuvida "innovatsion taraqqiyot" g'oyasining mazmun-mohiyatini va innovatsion taraqqiyot bilan xalqimizning an'anaviy milliy turmush tarzi o'rtasida o'ziga xos uyg'unlikni ochib berish orqali O'zbekistonga xos milliy taraqqiyot modelini yaratishning ijtimoiy-falsafiy jihatlarini ochib berish.

Tadqiqotning obyektini sifatida jamiyatning yangi rivojlanish bosqichida g'oyaviy birlashuv jarayonlari olingan.

Tadqiqotning predmetini jamiyatning yangi rivojlanish bosqichida g'oyaviy birlashuv zaruratining ijtimoiy-falsafiy jihatlarini tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda analiz va sintez, kompleks va tizimli yondashuv, sotsiologik so'rovnomalar, kuzatuv, sotsiometrik tahlil, retrospektiv

yondashuv, psixodiagnostika va nazariy modellashtirish kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

jamiyatning yangi rivojlanish bosqichida g'oyaviy birlashuv zaruriyati, "g'oyaviy birlashuv" tushunchasining mazmun-mohiyati hamda uni ijtimoiy birdamlikni ta'minlovchi paradigma ekanligi yakkalik, xususiylik va umumiylik kabi dialektik kategoriyalar orqali ochib berilgan;

jamiyatda g'oyaviy birlashuvni shakllantirishda ijtimoiy qadriyatlar (xulq-atvor, tarbiya va dunyoqarash)ni qayta baholash va o'zgartirish, bag'rikenglik va tolerantlik muhitini yaratish, yagona ijtimoiy maqsad asosida birlashish istagi va ehtiyojini qo'llab-quvvatlash hamda shaxsiy manfaatlar bilan uyg'unlashtirish vazifalari ochib berilgan;

g'oyaviy birlashuvning ijtimoiy mas'uliyat, fidoyilik va daxldorlik fazilatlariga asoslanishi, milliy qadriyatlarni qadrlash va umuminsoniy qadriyatlarga hurmatni shakllantirishga tayanishi hamda etno-ijtimoiy birlik sifatida jamiyatning mavjud bo'lish sharti ekanligi asoslangan;

g'oyaviy birlashuvning falsafiy-axloqiy, ijtimoiy-ma'naviy mohiyatiga doir konseptual qarashlar asosida jamiyatda hamjihatlik muhitini yemiruvchi (kosmopolitizm, marginallashuv, ommaviy madaniyat, millatchilik, aqidaparastlik) go'zalarining "ijtimoiy davlat" konsepsiyasini amalga oshirishdagi salbiy ta'sirlari ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

O'zbekistonning yangi rivojlanish bosqichida jamiyat g'oyaviy birlashuvining ijtimoiy-falsafiy jihatlariga oid nazariy ma'lumotlar tizimlashtirilgan;

jamiyatning g'oyaviy birlashuvini amalga oshirish va ijtimoiy birdamlikni shakllantirishning ratsional va innovatsion yo'llari, xorij tajribasi asosida g'oyaviy birlashuvga erishish mexanizmlari aniqlangan;

jamiyatda g'oyaviy birlashuv jarayonlarini yuksaltirish kishilarda vatanparvarlik, fidoyilik, sadoqat, ijtimoiy mas'uliyatni rivojlantirishi orqali insonda vatan manfaatlariga zid bo'lgan va yot g'oyalarga qarshi immunitetni shakllantirishi asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiya materiallari to'plamlari, OAK ro'yxatidagi maxsus jurnallar hamda xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati unda ilgari surilgan g'oyalar, umumlashtirilgan ilmiy xulosalardan demokratik taraqqiyot institutlari, jamoatchilik nazorati, fuqarolik jamiyati institutlari bilan bog'liq ilmiy-nazariy qarashlarni yanada boyitishda, ilmiy-nazariy xulosalar davlat va jamiyat boshqaruvida g'oyaviy birlashuv jarayonlarining tutgan o'rni, demokratlashtirish jarayonlarida ijtimoiy-ma'naviy ahamiyati, jamiyatdagi ijtimoiy ehtiyojlarni barataf etishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati unda o'z aksini topgan nazariy xulosalar, konkret amaliy taklif-tavsiyalardan Respublika ma'naviyat va ma'rifat

markazi faoliyatida, O‘zbekistondagi uzluksiz ta’lim tizimi, siyosiy partiyalar, nodavlat tashkilotlari, o‘zini o‘zi boshqarish organlari va mahalla instituti faoliyatida, shuningdek, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarda davlat va jamiyat hayotida fuqarolarning ijtimoiy faolligini oshirish, xalq hokimiyatchiligini mustahkamlash va jamoatchilik nazoratini mamlakatimiz hayotida keng ko‘lamli yo‘lga qo‘yishda foydalanish mumkinligida ko‘rinadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Jamiyat taraqqiyotining yangi bosqichida g‘oyaviy birlashuv zaruriyati muammosini o‘rganish bo‘yicha olib borilgan tadqiqot natijalari asosida:

jamiyatning yangi rivojlanish bosqichida g‘oyaviy birlashuv zaruriyati, “g‘oyaviy birlashuv” tushunchasining mazmun-mohiyatini ochib berishga doir taklif va tavsiyalaridan Respublika ma’naviyat-ma’rifat markazi huzuridagi ijtimoiy ma’naviy tadqiqotlar institutining 2021-2022-yillarda o‘tkazilgan targ‘ibot faoliyatida keng foydalanilgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-maydagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4307-son Qaroriga muvofiq ishlab chiqilgan “O‘zbekiston Respublikasida ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini yanada oshirish, aholining intellektual salohiyati va dunyoqarashini yuksaltirishga, mafkuraviy immunitetini mustahkamlashga doir chora-tadbirlar” dasturining “Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, qabul qilinayotgan qonun hujjatlarining mazmun va mohiyatini aholining keng qatlamlariga yetkazishga qaratilgan targ‘ibot tadbirlari” nomli II bandida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlashda foydalanilgan (Respublika ma’naviyat-ma’rifat markazi huzuridagi ijtimoiy ma’naviy tadqiqotlar institutining 2022-yil 14-oktyabrdagi 309-son ma’lumotnomasi). Natijada g‘oyaviy tarbiyaning mehrtotuvlik-ahillik kabi mezonlari ta’siri orqali kishilarda ijtimoiy birdamlik tamoyillarini shakllantirish hamda ijtimoiy birdamlikni ta’minlovchi paradigma ekanligini yakkalik, xususiylik va umumiylik kabi dialektik kategoriyalar orqali ochib berishga xizmat qilgan;

jamiyatda g‘oyaviy birlashuvni shakllantirishda ijtimoiy qadriyatlar (xulq-atvor, tarbiya va dunyoqarash)ni qayta baholash va o‘zgartirishga doir taklif va tavsiyalaridan 2022-2023-yillarda O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston” teleradiokanali” DM “Millat va ma’naviyat”, “Ta’lim va taraqqiyot” “O‘zbekiston yoshlari” eshittirishlarining ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston” teleradiokanali” davlat muassasasining 2023-yil 3-noyabrdagi 04-36-1656-son dalolatnomasi). Natijada kishilarda samarali hamkorlik munosabatlari o‘zaro hurmat va ishonchga asoslanuvchi konstruktiv muloqotning shakllanishi, bag‘rikenglik va tolerantlik muhitini yaratish, yagona ijtimoiy maqsad asosida birlashish istagi va ehtiyojini qo‘llab-quvvatlash va shaxsiy manfaatlar bilan uyg‘unlashtirish vazifalarni ochib berishga xizmat qilgan;

g‘oyaviy birlashuvning ijtimoiy mas’uliyat, fidoyilik va daxldorlik fazilatlariga asoslanishi, milliy qadriyatlarni qadrlash va umuminsoniy qadriyatlarga hurmatni shakllantirishga tayanishiga doir xulosa va ilmiy yangiliklaridan Respublika ma’naviyat-ma’rifat markazi huzuridagi ijtimoiy ma’naviy tadqiqotlar institutining

2021-2022-yillarda o‘tkazilgan targ‘ibot faoliyatida keng foydalanilgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-maydagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4307-son Qaroriga muvofiq ishlab chiqilgan “O‘zbekiston Respublikasida ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini yanada oshirish, aholining intellektual salohiyati va dunyoqarashini yuksaltirishga, mafkuraviy immunitetini mustahkamlashga doir chora-tadbirlar” dasturining “Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, qabul qilinayotgan qonun hujjatlarining mazmun va mohiyatini aholining keng qatlamlariga yetkazishga qaratilgan targ‘ibot tadbirlari” nomli II bandida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlashda foydalanilgan (Respublika ma’naviyat-ma’rifat markazi huzuridagi ijtimoiy ma’naviy tadqiqotlar institutining 2022-yil 14-oktyabrdagi 309-son ma’lumotnomasi). Natijada etno-ijtimoiy birlik sifatida jamiyatni mavjud bo‘lish sharti ekanligi hamda shaxsda milliy ma’suliyatni yuksaltirish, yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga xizmat qilgan;

g‘oyaviy birlashuvni falsafiy-axloqiy, ijtimoiy-ma’naviy mohiyatiga doir kontseptual qarashlar asosida jamiyatda hamjihatlik muhitini yemiruvchi (kosmopolitizm, marginallashuv, ommaviy madaniyat, millatchilik, aqidaparastlik) go‘yalarini “ijtimoiy davlat” konsepsiyasini amalga oshirishdagi salbiy ta’sirlari ochib berishga doir xulosa va takliflaridan 2022-2023-yillarda O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston” teleradiokanali” DM “Millat va ma’naviyat”, “Ta’lim va taraqqiyot” “O‘zbekiston yoshlari” eshittirishlarining senariysini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston” teleradiokanali” davlat muassasasining 2023-yil 3-noyabrdagi 04-36-1656-son dalolatnomasi). Natijada, jamiyatning yangi rivojlanish bosqichida ijtimoiy birdamlik tamoyillarini shakllantirish orqali ijtimoiy taraqqiyotni ta’minlash yo‘llarini asoslashga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma’ruza ko‘rinishida bayon etilgan hamda aprobatsiyadan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 19 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 13 ta maqola (11 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, 3ta bob, 6 ta paragraf, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat bo‘lib, asosiy matn 131 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, muammoning o‘rganilganlik darajasi, ilmiy yangiligi, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi, obykti,

predmeti, metodlari, maqsadi va vazifalari aniqlangan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy qilingani, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Jamiyat taraqqiyotining yangi bosqichida g'oyaviy birlashuv zaruriyatini o'rganishning nazariy-metodologik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida g'oyaviy birlashuv kategoriyasining mazmun mohiyati, konseptual asoslari va uchinchi Renessans ostonasida jamiyatni birlashtiruvchi yangi konsepsiyaga ehtiyojning obyektiv zarurati tadqiq etilgan.

Bugungi kunda jahonda globallashuv jarayonlarining tezlashishi, integratsion aloqalarning chuqurlashuvi “milliy chegaralar”ni yuvib yubormoqda. Natijada davlatlarning ichki barqarorligi, milliy birligi va g'oyaviy birdamligi tahdid ostida qolmoqda. Bunday vaziyatda har bir davlat o'zining ulug'vor maqsadlaridan kelib chiqqan holda jamiyatni birlashtirishi, xalqni yagona g'oyaga ishonirishi va bu g'oya orqali barqaror ijtimoiy taraqqiyotni ta'minlash mumkinligini singdirib borishi talab etilmoqda. O'zbekistonda ham o'zining yangi taraqqiyot bosqichida ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, jamiyatda milliy birlashuvni shakllantirish, milliy birdamlik asosida faoliyat yuritishni yo'lga qo'yishga doir vazifalar dolzarflik kasb etmoqda. Zero, “ijtimoiy hamkorlik jamiyatda tinchlik va barqarorlik, yuksak taraqqiyotni ta'minlashning muhim omilidir. Ijtimoiy hamkorlik bo'lmagan jamiyatda boshboshdoqlik, turli millat va elat vakillari o'rtasida ishonchsizlik ortib, qarama-qarshilik va ziddiyatlar kuchayishi, bu esa, oxir-oqibatda, og'ir inqirozga olib kelishi mumkin”⁷. Shu ma'noda jamiyatimizning yangi taraqqiyot bosqichida milliy birlashuv g'oyasi asosida ijtimoiy hamkorlikka ehtiyoj paydo bo'lmoqda.

Jamiyatning yangi rivojlanish bosqichida g'oyaviy birlashuv o'ziga xos milliy mafkuradir, u muayyan mulohaza, qoida, fikrlarda ifodalanadi. Unga erishish ilmiy, texnologik, iqtisodiy, ijtimoiy determinantlar majmuyi sifatidagi obyektiv shart-sharoitlarga hamda subyektiv omillar, jamiyatda ijtimoiy adolatning ta'minlanishi, ijtimoiy mas'uliyat, fuqarolarning ijtimoiy faolligi va ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi axloqiy tamoyillar, huquqiy normalarga bog'liqdir. Maqsadga turli vosita, usullar yordamida erishiladi. Maqsadga erishish vositalari ham moddiy, ham ma'naviy bo'lishi mumkin. Maqsad aloqalari tizimi harakatlar dasturida aks etadi. Maqsad va unga erishish vositasining o'zaro ta'siri ularning umumiy tomonlari mavjudligi bilan bog'liq. O'zaro ta'sir umumiy tomonlar orqali amalga oshiriladi, buning natijasida o'zaro ta'sir etuvchi tizimlar o'zgaradi.

Jahon miqyosidagi murakkab jarayonlarni va mamlakatimiz bosib o'tgan taraqqiyot natijalarini chuqur tahlil qilgan holda keyingi yillarda «Inson qadri uchun» tamoyili asosida xalqimizning farovonligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, inson huquqlari va manfaatlarini so'zsiz ta'minlash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlarning ustuvor yo'nalishlari⁸ sifatida belgilanishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, insonning va jamiyat intellektual

⁷ Куронов М. Бизни бирлаштирган ғоя. –Тошкент: Ғофур Ғулом НМИУ. 2016. –Б. 21.

⁸ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022 — 2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сон Фармони// <https://lex.uz/docs/5841063>

salohiyatining yuksalishida g'oya asosiy manba hisoblanadi. Chunki insoniyat va jamiyat ehtiyojlarning uzluksiz beto'xtov o'sib kelishi g'oya asosida rivojlanib boradi. Bu jarayon o'z navbatida ehtiyojlarni qondirish borasida yuzaga keladigan muammolar va vazifalarni hal qilishga qaratilgan g'oyalarning shakllanishiga olib keladi. Shu ma'noda ham g'oyani o'sib kelayotgan ehtiyojlarning in'ikosi va uni qondirish borasidagi muammolar va vazifalar tizimini o'zida ifoda ettiradi, deyish mumkin. U bu yo'nalishda istiqbolga xizmat qiluvchi qarashlar, maqsadlar va xulosalar tizimi sifatida namoyon bo'ladi.

Yangilanayotgan O'zbekistonda yangi g'oyaviy konsepsiya zarurligi va bu asosda jamiyatda g'oyaviy birlashuvni shakllantirish, milliy birdamlik, hamjihatlikni oshirish uchun quyidagi jihatlarga e'tibor qaratish lozim:

- milliy o'zlikni, an'analarni, xalqning orzu-umidlarini, jamiyat oldida turgan maqsad va vazifalarini qamrab olish;

- jamiyatning barcha a'zolarini yagona milliy bayroq atrofida birlashtirib, ularni buyuk maqsadlar sari chorlaydigan g'oyani yaratish;

- millatchilik, boshqa xalqlarni mensimaslik kayfiyatidan xoli bo'lib, jahon hamjamiyatida o'zimizga munosib o'rin, hurmat va izzat qozonishda poydevor bo'lishi;

- jamiyat a'zolarini, avvalo, yosh avlodni vatanparvarlik, el-yurtga sadoqat ruhida tarbiyalashga madadkor bo'lishi;

- vatanning o'tmishi, bugungi kun va kelajagini bog'laydigan, jahon hamjamiyatiga, umumbashariy yutuqlarga yetaklab boradigan g'oyani bayroq qilib ko'tarishi kerak.

G'oyaviy birlashuv odamlar ongida tushuncha shaklidagina yashamay, amaliyotda, real amaliyotda namoyon bo'lishi zarur. Shundagina u jamiyatni tashqi nosog'lom ma'naviy tahdidlardan himoya qiladigan kuchga aylanadi. Jamiyatda g'oyaviy birdamlik zaif bo'lsa, insonlarda millat taqdiri va Vatan kamolotiga xizmat qilish, ona tuprog'ini ko'z qorachig'idek asrash, xalqi, yosh avlodlarni buzg'unchi, yot oqimlardan himoya qilish tuyg'usi bo'lmaydi.

Milliy birdamlikni targ'ib qilgan ma'rifatparvarlik harakati mamlakatni feodal qoloqlikdan chiqarish uchun kurashuvchi ilg'or kuchlarning manfaatlarini ifodalovchi g'oyaviy harakat ham edi. Jumladan, M. Behbudiy milliy mustaqillik manfaatlarini himoya qila oladigan, iqtisodiy-siyosiy qaramlik va qoloqlikdan chiqish muammolarini biladigan zamonaviy bilimga ega, yuksak salohiyatli shaxslar bo'lishi zarurligini ta'kidlab, "Islolni maktab va madrasalardan boshlash zarur, chunki millat hayoti ta'lim-tarbiya bilan belgilanadi⁹, deydi. Ma'rifatparvarlik harakatining yuqori maqomiga ko'tarilgan jadidlik namoyondalari A.Fitrat¹⁰, A.Avloniy¹¹, M.Abdurashidxonovlarning¹² asarlarida g'oyaviy birdamlik, hamjihatlik, ilmiy-falsafiy tafakkurning o'sishi, ma'naviy qadriyatlarni yuksaltirish kabi g'oyalarning o'ziga xos talqinlarini ko'rish mumkin.

⁹ Behбудий М. Танланган асарлар.-Тошкент:Маънавият, 1999. –Б. 228.

¹⁰ Фитрата. Раҳбари нажот.-Тошкент: Шарк, 2000. –Б.176

¹¹ Авлоний А. Танланган асарлар. 1-жилд. -Тошкент: Маънавият, 1998. –Б.328

¹² Абдурашидхонов М. Хотираларим.-Тошкент : Шарк, 2001. –Б. 268.

G‘oyaviy birlashuvga xizmat qiladigan, milliy birdamlikni shakllantiradigan mafkurani jamiyat a‘zolari qalbi va ongiga singdirish muhim masala bo‘lib, u odamlarni, avvalo, yoshlarni ezgu g‘oyalarga ishonirish, ularni bir maqsad atrofida uyushtirish, faollashtirish, mas’uliyatini oshirish, oliyjanob maqsadlar sari safarbar etishda ma’naviy-ruhiy jihatdan ulkan ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, jamiyatning g‘oyaviy birlashuvi undagi millat va elatlarning milliy o‘zligini anglash jarayoni bilan uyg‘un kechadi. Milliy o‘zlikni anglash - millat ma’naviy taraqqiyot darajasi mazmuni, o‘ziga xosligini tavsiflovchi ijtimoiy, axloqiy, siyosiy, iqtisodiy, estetik, diniy, falsafiy qarashlarining o‘ziga xosligi ko‘rinishidagi munosabatlar majmuasi. Milliy o‘zlikni anglash milliy ongning rivojlanishidagi yangi yuksak darajasi sifatida qaraladi¹³. Milliy o‘zlikni anglash sharoitida milliy manfaatlarni o‘rganish hamda nazariy jihatdan tadqiq etish muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bu borada qator ilmiy izlanishlar amalga oshirish zaruriyatini keltirib chiqaradi¹⁴. Shuning uchun ham ko‘pgina olimlar millatchilikni o‘z millatini va uning manfaatlarini xudbinlik zaminida mutloqlashtirish yo‘lida boshqa millatlarning manfaatlari bilan hisoblashmaydigan, ularni kamsitib, ijtimoiy adolatsizliklar tug‘diradigan illat sifatida talqin etishgan¹⁵. Shunday ekan, jamiyatning g‘oyaviy birlashuvida chegaradan chiqib ketmagan, mutloqlashtirilmagan milliy o‘zlikni anglash jarayoni muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, “davlat taraqqiyotini ijtimoiy-ma’naviy omillardan xoli tarzda tasavvur etib bo‘lmaydi. Hozirgi zamon globallashtirish jarayonlari bu masalani yanada dolzarblashtiradi”¹⁶. Bugungi kunda muayyan mamlakatning taraqqiyotini faqat moddiy ne‘mat va xizmatlar hajmining o‘sishi bilan belgilash mumkin emasligi tobora ayon bo‘lib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev bu borada quyidagi fikrni aytadi: “Bizning maqsadimiz – yurtimizda xalq hokimiyatini nomiga emas, balki amalda joriy qilish mexanizmlarini mustahkamlashdan iborat. Ishonchimiz komil: xalq davlat organlariga emas, balki davlat organlari xalqimizga xizmat qilishi kerak”¹⁷. Shunday ekan, xalq manfaatlarini ustuvorligi, inson huquqlari va erkinliklari ta‘minlanishi, boshqaruvda ijtimoiy adolat va qonuniylikning shakllanishi ham jamoatchilik birdamligiga bog‘liqligi va bu jamiyatning yakdil g‘oyaviy birlashuviga ehtiyoj zaruratini ko‘rsatib beradi.

O‘zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida, uchinchi Renessans ostonasida jamiyatni birlashtiruvchi, hamjihatlikni oshiruvchi, milliy birdamlikni ta‘minlovchi yangi g‘oyaviy konsepsiyaga ehtiyoj ortib bormoqda. Chunki jamiyatda umumiy oliy maqsadni shakllantirish va barchani shu g‘oya asosida birlashtirish yangicha taraqqiyotni belgilab beradi. Islohotlarni amalga oshiruvchi sifatida xalqda yakdil, ulug‘vor birlashtiruvchi g‘oya shakllansagina ijtimoiy mas’uliyat, fidoyilik va

¹³ Хажиева М. Онгда толерантлик ривожланишининг негизлари.- Тошкент: Fan va texnologiya, 2010. –Б. 34.

¹⁴ Человек и культура межнационального общения (под ред. Шермухамедова С.).-Ташкент: Узбекистан, 1995.

¹⁵ Юсупов Э., Туленов Ж., Гофуров З. Миллий масала бўйича фалсафий суҳбатлар.-Тошкент: Фан, 1990. –Б. 69.

¹⁶ Отамуродов С. Глобаллашув ва миллат.- Тошкент.: Янги аср авлоди, 2008; Баходир Зокир. Глобаллашув зиддиятлари. – Тошкент. Тафаккур, №1, 2004; Назаров А. Глобаллашув шароитида барқарор сиёсий тараққиёт хавфсизлигини таъминлаш муаммолари. - Тошкент: ЎзМу хабарлари, № 1/1, 2016.

¹⁷ Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг БМТ Бош Ассамблеясининг 72 сессиясида сўзлаган нутқи. Интернет манба: <http://www/president.uz>

halollik yuzaga keladi. Zero, “insoniyat tarixining barcha davrlarida olimlar “g‘oya” hodisasining ichki mohiyatini, qonunlarini anglashga va ularga amal qilishga intilganlar. Barcha davrlardagi davlatlarda ijtimoiy-siyosiy, madaniy, ma’rifiy ishlar tizimi ana shu maqsad bilan bog‘langani sir emas. Bu ishlar zaminida muayyan manfaatlar bilan bog‘langan maqsadlar yotgan. Bu maqsadlar tizimi va ularning mohiyati davlatlar, turli siyosiy kuchlar yaratgan va amal qilgan mafkurada ifodalangan”¹⁸. Jamiyatda milliy g‘oyaviy birlashuvni shakllantirish, yangi mafkura konsepsiyasini ishlab chiqish, uni aholining ongiga singdirish muhim vazifalardan hisoblanadi. Mamlakatimizda bu yo‘nalishda salmoqli ishlar amalga oshirildi va oshirilmoqda.

Bugungi kunda dunyoda sodir etilayotgan g‘oyaviy tahdidlardan ko‘zlangan maqsad – inson qalbini egallash, uni o‘z dunyoqarashiga bo‘ysundirish, ma’naviy jihatdan zaif va tobe qilishdan iboratdir. Shu bois bugun jamiyatda milliy birlashuvga ehtiyoj har qachongidan ham ortib borayotganligi, buning uchun yangicha milliy birlashuv konsepsiyasini oila, mahalla, mehnat jamoalari, san’at va adabiyot, fan-ta’lim muassasalari hamda ommaviy axborot vositalari orqali keng jamoaga tatbiq etish, millatlararo totuvlik, insonparvarlik, hamjihatlik o‘rnatish taraqqiyot kafolatlaridan biri hisoblanadi.

Jamiyat yangilanayotgan, ongimiz va tafakkurimiz o‘zgarayotgan bir paytda milliy taraqqiyot omili bo‘lib xizmat qilishi uchun eski mafkuraviy andozalardan voz kechishimiz, yangi ijtimoiy jarayonlarning butun mohiyatini ifodalab beradigan yangi mafkurani vujudga keltirishimiz kerak. Hatto eski mafkurani qayta “ta’mirlab”, yamab-chirmab, bichib-tikib yangilash ham samara bermaydi. U butunlay yangi davrning, uyg‘onayotgan ruhiyat, uyg‘onayotgan inson hissiyoti va jonlanayotgan yangicha tafakkurning mahsuli sifatida dunyoga kelmog‘i lozim.

Dissertatsiyaning **“O‘zbekistonning yangi rivojlanish davrida g‘oyaviy birlashuv zaruriyatining dialektik va sinergetik tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida jamiyatning g‘oyaviy birlashuvida dunyoviylik hamda diniylik muvozanatini ta’minlashning asosiy shart va omillari hamda Harkatlar strategiyasining jamiyat taraqqiyotining yangi bosqichida g‘oyaviy birlashuvni ta’minlovchi strategiya sifatidagi ahamiyati tadqiq qilingan.

O‘zbekistonning “Jaholatga qarshi - ma’rifat” degan tamoyil asosida jahon miqyosida tinchlik va osoyishtalikni saqlash, vijdon erkinligi va dinlararo bag‘rikenglikni ta’minlash, islom dinining insonparvarlik mohiyatini xalqimiz va dunyo ahliga yetkazish borasidagi tashabbuslari xalqaro hamjamiyat tomonidan keng qo‘llab-quvvatlanmoqda¹⁹. Bugungi kunda jahon taraqqiyotida diniy omil borgan sari o‘z kuchini ko‘rsatayotir. Nafaqat u yoki bu davlatda, balki butun boshli mintaqalarda uning ta’sirida fuqarolar qarama-qarshilik, o‘zaro nizo va kelishmovchiliklar girdobiga tortilmoqda, ijtimoiy barqarorlik va tinchlik muhiti buzilmoqda. Ushbu ijtimoiy-siyosiy sharoitdan kelib chiqqan holda demokratiyaning bugungi ta’rifida xalq hokimiyatchiligi bilan bir qatorda diniylik va dunyoviylikning o‘zaro munosabatlari to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgan ijtimoiy-siyosiy

¹⁸ Ахмедов И. Глобализация в условиях глобализации. – Тошкент.: Наврўз. 2019. –Б.5.

¹⁹ Мирзиёев Ш.М. Нияти улуг‘ халқнинг иши ҳам улуг‘, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. –Тошкент: Ўзбекистон, 2019. –Б. 376.

sharoit bilan xarakterlanadi, deyish maqsadga muvofiqdir. Bugungi kunda jamiyatning g'oyaviy birlashuvida diniylik va dunyoviylik o'rtasidagi munosabatning qay tarzda shakllanganligi hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda.

Jamiyatning g'oyaviy birlashuvida davlat va diniy birlashmalar faoliyatidagi ajratilishlar ayirmachilikni keltirib chiqarmaydi. Dunyoviylik bag'rikeng muloqot madaniyati asosidagi faoliyatlarda bir-birining ishlariga aralashmaslik hisoblanadi. J.Xabermas fikricha, "davlat jamiyat hayotining turli jabhalarida diniy birlashmalardan ajratilgan bo'ladi va ayni vaqtda ular bilan samarali muloqot hamda hamkorlikni yo'lga qo'yadi. Bu yerda biz ijtimoiy sohada davlat hokimiyatiga va fuqarolarning shaxsiy huquq va erkinliklarini ta'minlashga oid, jamiyatning barcha a'zolari uchun umumiy ma'noga ega bo'lgan masalalar yuzasidan munozara qilish mumkin bo'lgan davlat va nodavlat tashkilotlarini tushunamiz"²⁰. Jamoatchilik muhokamasi umumiy masalalarga daxldor va ijtimoiy-siyosiy maydonda ro'y beradigan muhim tanqidiy bahslardir. So'nggi vaqtlarda demokratiya bo'yicha ekspertlar olib borayotgan ko'pgina ilmiy tadqiqot ishlarida demokratiyaning faqat umumiy muammolariga emas, balki demokratik jamiyatda dinning tutgan o'rni masalasiga ham asosiy e'tibor qaratmoqdalar va bu masalalar ilmiy munozaralarda demokratiya tamoyillarining "birlashtiruvchi" yoki "markazlashtiruvchi" modellariga muhim qo'shimcha sifatida birinchi o'ringa chiqmoqda. Lekin bu yondashuv "g'oliblar va mag'lublarni aniqlash mexanizmi"ni topishga xizmat qilishi mumkin, ammo konsensusga erishish, jamoatchilik fikrini shakllantirish yoki yetarli darajada kompromisga erishish mexanizmini ishlab chiqishga hech qanday yordam bermaydi²¹. Shunday ekan O'zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida jamiyatda g'oyaviy birlashuvni amalga oshirish, milliy birdamlikni shakllantirish uchun diniylik va dunyoviylik o'rtasida maqsadlar birligiga erishish, birlashuvni ta'minlash, mushtaraklikni shakllantirish talab etiladi.

XX asr oxiriga kelib ma'naviy-madaniy nuqtayi nazardan rang-barang musulmon olamining turli qismlarida radikal islomchilarning islomda hokimiyat va dinning yaxlitligi haqidagi azaliy shiorini qat'iy yoqlovchi kuchlar o'ta faollashdi. "Bugungi kunda butun dunyo, ayniqsa, islom hamjamiyati davrning tahlikali tahdidlari bilan yuzma-yuz turibdi. Islom dinini siyosiyashtirish va musulmon yoshlarni radikallashtirish borasidagi urinishlar bunday xatarlarni o'ta jiddiy tahlil qilish, baholash va ularga munosib javob berishni taqozo etmoqda"²². Mana shunday jarayonlar ayrim musulmon mamlakatlarida boshboshdoqlik, diniy ayirmachilik va parokandalikni kuchaytirib yubormoqda, bu esa jamiyatlarning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini tahdid ostida qoldirmoqda. Islomning siyosiyashtirilishi jamiyatda g'oyaviy birlashuvni murakkablashtirib, maqsadlar ayroligini yuzaga keltirmoqda. Shuningdek, ayrim musulmon yoshlarining radikallasuvi natijasida dunyoviylikning inkor qilinishi bilan birga, boshqa tomondan islomofobiyani keltirib chiqarmoqda. Bunday sharoitda jamiyatda g'oyaviy birlashuvni amalga

²⁰ Habermas, J. (1989) *The Structural Transformation of the Public Sphere: An Inquiry into a Category of Bourgeois Society* [1962]. Cambridge: Polity.

²¹ Кимлика У. Современная политическая философия: Введение. Москва: Изд. дом НИУВШЭ, 2010. -С. 371.

²² Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2 жилд. - Тошкент: Ўзбекистон НМИУ, 2018.-Б.457.

oshirish imkonsiz bo'lib qolmoqda. Shu bois islom mintaqalarida islomni siyosiy lashtirmasdan, uning ezgu g'oyalari, insonlarni birlashtiruvchilik funksiyalari asosida birdamlikni, g'oyaviy birlashuvni amalga oshirish zarurati ortib bormoqda.

Dunyoviy ideologiya asosida birlashuvga qaratilgan demokratik taraqqiyot yo'lining o'ziga xosligi shundaki, u dinni jamiyat hayotidan siqib chiqarishni emas, balki dinni jamiyat hayotining ajralmas qismi sifatida qabul qilib, ijtimoiy taraqqiyotga xizmat qiladigan omil sifatida tushuntirishga harakat qiladi. Dunyoviy davlatda davlatning din va diniy tashkilotlardan mustaqil ekanligi, qaysidir din yoki mafkuraning majburiyat sifatida o'rnatilmaganligi, ma'lum bir din yoki mafkura ta'sirida hukmron tizimning vujudga kelishiga yo'l qo'yilmasligi alohida xususiyatdir. Bu savolga aniq javob berish uchun dunyoviy davlatning o'ziga xos belgilarini tahlil etishga to'g'ri keladi²³. Bugungi kunda ilmiy adabiyotlarni o'rganish natijasida dunyoviy demokratik davlatning asosiy paradigmalari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- davlatning diniy va mafkuraviy manbalardan mustaqil ekanligining qonun asosida mustahkamlanganligi;
- har qanday diniy mafkuraning davlat boshqaruvining mutlaq suverenitetiga qarshi qo'yilishiga yo'l qo'yilmasligi;
- mafkurani targ'ib qilishga yo'naltirilgan diniy birlashmalarning davlatdan ajratilganligi;
- majburiy din yoki mafkuraning yo'qligi;
- diniy tashkilotlarning erkin faoliyat yuritishi uchun qonuniy sharoit yaratilganligi;
- diniy birlashmalarning qonun oldida tengligi;
- davlat ta'lim tizimining dunyoviy xarakterga ega ekanligi;
- din yoki mafkuraning majburan o'rnatilishiga yo'l qo'yilmasligi²⁴. Mana shunday majburiylikka emas, ixtiyor erkinligiga, ongli tanlovga asoslangan dunyoviylik va diniylik jamiyatda birdamlikni, hamjihatlikni shakllantiradi.

Jamiyatimizda g'iyaviy birlashuvni yaratish, hamjihatlikni ta'minlash, mafkuraviy tajovuzlardan himoyalash, terrorizmning ijtimoiy beqarorlikni yaratishiga imkon bermaslik maqsadida O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil 19-sentyabrdagi 5542-son "Terroristik, ekstremistik yoki boshqa taqiqlangan tashkilot va guruhlar tarkibiga adashib kirib qolgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini jinoiy javobgarlikdan ozod etish tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoni imzolandi. Unga ko'ra terroristik, ekstremistik yoki boshqa taqiqlangan tashkilot va guruhlar tarkibiga adashib kirib qolgan, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida bo'lgan, o'z qilmishining huquqqa xilofligini anglab yetgan va tuzalish yo'liga o'tgan fuqarolarga Vataniga, oilasi

²³ Понкин И. Понятийный аппарат в проблеме светскостигосударства и образования // Государственная служба. - 2002, -№5. - С. 118.

²⁴ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. Тошкент: Ўзбекистон. 2017. 19-21-б. / Смоленский М.Б. Конституционное (государственное) право России. Ростов н/Д: Феникс, 2002. –С.161.

bag‘riga, tinch hayotga qaytish imkoni berildi²⁵. Bu ham jamiyatda hamjihatlikni, birdamlikni shakllantirishga qaratilgan amaliy ishlardan biridir.

Jamiyatning g‘oyaviy birlashuvi aslida davlat va din munosabatlaridagi bag‘rikenglikka asoslanadi. Davlat, jamiyat va din munosabatini belgilab beruvchi asosiy tamoyillardan birining mazmuni din sohasida kechayotgan o‘zgarishlarni xolis va ilmiy o‘rganish, shundan kelib chiqib, ijobiy jarayonlar rivojiga yanada kengroq imkoniyat yaratish, salbiy holatlarning oldini olishda namoyon bo‘ladi. Davlatning dinga bo‘lgan munosabatini ifodalovchi boshqa bir tamoyil shundan iboratki, davlat dinni xalq ma‘naviyatining uzviy qismi sifatida tan oladi. Shundan kelib chiqib, uning rivoji uchun tegishli shart-sharoit yaratadi. “Yurtimizda etnik o‘ziga xoslikni rivojlantirish va millatlararo munosabatlarni yanada uyg‘unlashtirishda 138 ta milliy madaniy markaz katta rol o‘ynamoqda”²⁶. Biz bugun amalga oshirayotgan Harakatlar strategiyasining beshinchi ustuvor yo‘nalishida ham millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta‘minlash bo‘yicha eng muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu orqali millatlararo munosabatlarni mustahkamlash, ularni yagona maqsad yo‘lida birlashtirish mumkin bo‘ladi.

Jamiyatni g‘oyaviy birlashtirishda kuchli ta‘sir vositalaridan oqilona va samarali foydalanish mumkin bo‘ladi. Din niqobidagi ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishda shu oqim vakillarini jazolash bilangina natijaga erishib bo‘lmasligini hayotning o‘zi isbotladi. Chunki muammoning oqibati bilangina kurashish mutlaqo samarasizdir. Prezidentimiz mamlakat boshqaruvida ijtimoiy barqarorlikka eng katta xavf hisoblangan din niqobidagi ekstremizm va terrorizmga qarshi samarali kurashishning yagona yo‘li uni keltirib chiqaruvchi sabablar bilan kurashish ekanligini anglab yetdi hamda milliy g‘oyamizning asoslaridan biri “jaholatga qarshi ma‘rifat” tamoyili asosida ulkan islohotlarni amalga oshirmoqda.

Jamiyatning har jihatdan rivojlanish borasida o‘zgarmas va rad etib bo‘lmaydigan qonuniyatlari mavjud. Birdamlik va hamjihatlik yuqori bo‘lgan jamiyat iqtisodiy va harbiy jihatdan kuchli bo‘ladi. Aksincha, boshboshdoqlik va parokandalik kuchli bo‘lgan davlat, albatta, iqtisodiy-ijtimoiy, harbiy-mudofaa jihatidan tubanlikka yuz tutadi. Jamiyatning taraqqiy etish qonuniyatlarini teran anglagan prezidentimiz ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta‘minlash, g‘oyaviy birlashuvga erishi orqali birdamlik va hamjihatlik muhitini yaratishga qaratilgan ko‘plab tashabbuslarni ilgari surmoqda. Jamiyatda g‘oyaviy birdamlikni shakllantirishga qaratilgan besh tashabbus ham yoshlarni yuksak maqsadlarga tayyorlash va yo‘naltirish, ijtimoiy taraqqiyot uchun o‘z hissasini qo‘shadigan farzandlar bo‘lib voyaga yetishlari uchun sharoit va imkoniyatlar yaratishga qaratilgan g‘oya va muhim strategik maqsad hisoblanadi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“O‘zbekistonning yangi rivojlanish bosqichida jamiyatning g‘oyaviy birlashuv strategiyasining istiqboldagi vazifalari”** deb nomlanadi. Mazkur bobda jamiyatning g‘oyaviy birlashuvida

